O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
YANGIQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING

# QARORI

Yangiqo’rg’on shaharchasi Mustaqillik ko’chasi, 1 uy. 161200 Tel: (69)63-21-051

2022 - yil 30 - sentabr 543-6-90-Q/22 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Yangiqo‘rg‘on tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida.**

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Yangiqo‘rg‘on tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvatlash bo‘limi tomonidan 2022 yil 1 iyuldagi tuman hokimi nomiga yozgan 267/01-14 sonli xati asos uchun qabul qilinsin.

2. Yangiqo‘rg‘on-Nanay yo‘nalishida yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida 4R-118 “Jiydakapa-Uychi-Chortoq-Yangiqo‘rg‘on-Zarkent-Nanay” avtomobil yo‘lining 32-33, kilometrida kirish taqiqlanadi
(3,1 belgisi) hamda to‘xtash taqiqlanadi (3,27 belgisi) yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruhsat berilsin.

3. Yangiqo‘rg‘on tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Yakubbaev) va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (R.Ziyoviddinov)ga sodir bo‘layotgan yo‘l-transport xodisalarini oldini olish maqsadida, 4R-118 “Jiydakapa-Uychi-Chortoq-Yangiqo‘rg‘on-Zarkent-Nanay” avtomobil yo‘lining 32-33, kilometrlar oralig‘iga kirish taqiqlanadi (3,1 belgisi) hamda to‘xtash taqiqlanadi (3,27 belgisi) yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qaror tuman hokimligining “Yangiqo‘rg‘on xayoti” gazetasining navbatdagi sonida rasman e’lon qilinsin va bir kun muddatda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Sotiboldiev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **A.Najmiddinov**